

HANAFIY FIQHINING ILK NAZARIY ASOSLARI

Sobirjonova Zilola

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Tel: +998997247518

Email: zilolasobirjonova727@gmail.com

Abstract. Although the foundations of Sharia are based on the Qur'an and Sunna, it has undergone developmental stages like other legal systems. Various historical factors, including natural and climatic conditions, living standards, political and social structures, and the expansion of Islam into diverse cultural and ethnic regions, contributed to the evolution of Sharia. During the first three centuries, these influences shaped Islamic governance, institutions, and legal principles.

Keywords. Hanafi jurisprudence, Early theoretical foundations, Islamic law, Usul al-fiqh, Abu Hanifa, Analogical reasoning, Juristic preference, Islamic legal sources, Schools of Islamic law, Transoxanian jurists.

Annotatsiya. Shariat asoslari Qur'on va Sunnaga tayanishiga qaramay, u ham boshqa huquqiy tizimlar singari rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Tarixiy jarayon davomida turli omillar, jumladan, iqlim va tabiiy sharoitlar, turmush darajasi, siyosiy va ijtimoiy tuzum, shuningdek, Islomning turli madaniy va etnik hududlarga tarqalishi uning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ilk uch asr ichida bu omillar islomiy boshqaruv, institutlar va huquqiy tamoyillarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Kalit so'zlar. Hanafiy fiqhi, Ilk nazariy asoslar, Islom huquqi, Usul al-fiqh, Abu Hanifa, Qiyos, Istihson, Shar'iy manbalar, Fiqh maktablari, Movarounnahr fiqhchilari

Аннотация. Несмотря на то, что шариат основывается на Коране и Сунне, как и другие правовые системы, он прошёл этапы развития. В ходе исторического процесса различные факторы, такие как климатические и природные условия, уровень жизни, политический и социальный строй, а также распространение ислама в различные культурные и этнические регионы, сыграли важную роль в его формировании. В течение первых трёх веков эти факторы оказали значительное влияние на развитие исламского управления, институтов и правовых принципов.

Ключевое слово. Ханафитское право, Ранние теоретические основы, Исламское право, Усуль аль-фикх, Абу Ханифа, Аналогическое суждение, Юридическое предпочтение, Шариатские источники, Школы исламского права, Мавераннахрские правоведы.

KIRISH

Islom huquq tizimi o'zining boy nazariy merosi bilan boshqa huquqiy maktablarga ta'sir o'tkazgan muhim sohaga aylangan. Ayniqsa, hanafiy fiqh maktabi o'zining yuksak ilmiy asoslari, keng qamrovi va ijtimoiy moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu maktabning ilk nazariy asoslari VIII asrda Abu Hanifa va uning shogirdlari tomonidan shakllantirilgan bo'lib, keyinchalik ularning uslubiy yondashuvlari rivojlanib, murakkab fiqhiy tizimga aylangan. Qur'on va Sunnadan tashqari, qiyos, istihson kabi usullar orqali masalalarni yechish yo'li bu maktabni boshqa yondashuvlardan farqlab turadi. Ushbu maqolada hanafiy fiqhining ilk bosqichlari, uning shakllanishiga sabab bo'lgan omillar, nazariy va metodologik asoslar hamda ilk ulamolar faoliyati tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, fiqhiy tafakkurning tarixiy ildizlarini yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLARNI O'RGANISH

Hanafiy fiqhining ilk nazariy asoslarini yoritishda klassik va zamonaviy manbalar muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzuni tadqiq qilish jarayonida avvalo Abu Hanifa (rahmatullohi alayh) va uning shogirdlari, jumladan, Abu Yusuf hamda Muhammad ash-Shayboniy kabi mujtahidlarning asarlari tahlil qilindi. Xususan, "al-Kitob", "al-Asl", "Siyar al-Kabir" kabi manbalar orqali fiqhiy tafakkurning dastlabki bosqichlari o'rganildi. Shuningdek, usul al-fiqhga oid yozilgan "al-Fusul fi-l-usul" va boshqa metodologik risolalar hanafiy fiqhining nazariy asoslarini anglashda asosiy adabiy manbalar bo'ldi.

Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan, Muhammad Abu Zahra, Shayx Wahba Zuhayliy, Anvarulqosim Dehlaviy kabi olimlarning ishlari ham mavzuga ilmiy asosda yondashish imkonini berdi. Ularning asarlarida hanafiy fiqhining tarixiy shakllanishi, asosiy manbalari va metodologiyasi keng yoritilgan. Shu bilan birga, hanafiylikning Movarounnahrda rivojiga oid o'zbek tilidagi ilmiy maqolalar va dissertatsiyalardan ham keng foydalanildi.

ASOSIY QISM

Shariatning asosini Qur'on va Sunna tashkil etgan bo'lsa ham, u amaliy hayot jarayonida boshqa qonuniy tizimlar kabi o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. O'tmishda islomiy jamiyatlarni o'z ta'siri ostiga olgan tabiiy, iqlimiy omillardan tashqari, yashash sharoitlari va unda mavjud bo'lgan siyosiy va ijtimoiy yo'nalishlar shariat rivoji uchun tarixiy omillar bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, islom dini tarqalish doirasining kengayishi, turli-tuman madaniyatlarga ega bo'lgan etnik jamoalarning ushbu dinni qabul qilishi ham bu sohada o'z ta'sirini o'tkazdi. Birinchi uch asr davomida aytib o'tilgan omillar ta'siri ostida musulmon o'lkalarda qurilgan davlatlarning turli muassasalari va siyosiy faoliyat tamoyillari shakllandi. Bularning hammasi islom qonunchiligining rivojida chuqur iz qoldirdi [2:13].

Usulul fiqhga oid birinchi asar imom Muhammad ibn Idris al-Shofe'iy tomonidan yozilgan bo'lib, uning mazkur "Risola" nomli asari bizgacha yetib kelgan. Shu asosda

imom Shofe'iy usulul fiqh ilmining asoschisi sifatida tanilgan. Keyinchalik, usulul fiqh ilmi ikki asosiy yo'nalishga bo'linib, har bir yo'nalishda ko'plab muhim asarlar yaratilgan.

Birinchi yo'nalish – mutakallimlar yo'nalishi bo'lib, bu yo'nalishda faoliyat yuritgan olimlar dalil va hujjatlarning matni, lug'at, kalom va aql qoidalariga tayanishdi. Ular o'z asarlarida furu'ul fiqhga e'tibor bermasdan, faqat usuliy jihatlarga, ya'ni fiqhning asosiy tamoyillariga qaradilar[5:43].

Ikkinchi yo'nalish – hanafiy mazhabi ulamolari yo'nalishi bo'lib, bu yo'nalishda usulul fiqh qoidalari hanafiy mazhabidagi mujtahidlarning ijtihodlari asosida shakllantirilgan. Chunki hanafiy mazhabidagi mujtahidlar, imom Shofe'iy kabi, usulul fiqhga oid alohida asarlar qoldirmaganlar. Ularning merosi faqat fiqhiy masalalar bilan cheklangan bo'lib, usulul fiqhga doir nazariy asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Hanafiy mazhabi yo'nalishidagi usulul fiqh uslubi o'zining uch xususiyati bilan ajralib turadi:

- Ushbu uslubda fiqhga oid qoidalar uning hukmlari bilan amaliy jihatdan bog'langan.
- Usulul fiqh va fiqh o'rtasidagi ikki taraflama integratsiya amalga oshirilgan.
- Bu uslub, muqobil qarashlarni tahlil qilish va umumiy fiqhiy qoidalarni bayon etishda mislsiz xizmat hisoblangan.

Usulul fiqh sohasidagi quyida keltirilgan klassik fiqhiy asarlarga alohida to'xtalib o'tish zarur:

- Abu Bakr Ahmad ibn Ali Jassosning “Al-Fusul fil usul” asari.
- Abu Zayd Ubaydulloh ibn Umar Dabbusiyning “Taqviymul adilla” asari.
- Faxrul Islom Aliy ibn Muhammad Bazdaviyning “Kitobul usul” asari.

Abu Bakr Jassos (vaf. 370/981) qoldirgan ilmiy meros hanafiy mazhabida o'ziga xos ahamiyatga ega. Alloma ilmiy maktabi, shogirdlar tarbiyasi va fiqhga oid qimmatli asarlari bilan hanafiy mazhabi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Uning asarlarini uch guruhga ajratish mumkin: a) alloma o'zi tasnif etgan asarlar; b) sharhlar; v) muxtasar.

Abu Bakr Jassosning “Al-Fusul fil usul” asari uning o'zi tasnif qilgan asarlar sirasiga kirib, unda asosan fiqhiy masalalar ko'rib chiqilsa-da, ammo usulul fiqh masalalariga kelganda kengroq sharh beriladi. “Al-Fusul fil usul” usulul fiqh ilmida hanafiy mazhabi bo'yicha yozilgan dastalabki va asosiy kitoblardan biridir. Abu Bakr Jassos mazkur asarni o'zining mashhur shayxi imom Karxiy vafotidan keyin yozgan. Bu asar uning ilmiy tajriba va amaliy xulosasi sifatida yuzaga kelgan va hanafiy mazhabidagi usulul fiqh ilmining tojiga aylangan. [14:19].

Abu Zayd Dabusiyy (367-430/978-1039)ning to'liq ismi Ubaydulloh ibn Umar ibn Iso Dabusiyy bo'lib, “Abu Zayd” uning kunyasidir. Buxoroning mashhur yetti qozisidan biri bo'lgan. Abu Zayd Dabusiyyning ota-onasi, oilasi va yoshligi haqida cheklangan miqdordagi ma'lumot uchraydi. Abu Zayd Dabusiyy yashagan davr Movarounnahrda

ilm-fan rivojlanayotgan davr bo'lib, hanafiy va shofi'iy mazhablari o'rtasida ilmiy munozaralar kuchaygan edi. Dabusiylar ikki buyuk faqih Abu Bakr Muhammad ibn Fazl Buxoriy va Abu Bakr Jassosning shogirdi Abu Ja'far Abdulloh Ustrushoniylardan fiqh, usulul fiqh, xilof, jadal va tasavvuf ilmlarini o'rganib, fiqh bo'yicha iqtidorli olim darajasiga yetdi [3:154].

Fiqh ilmi, hanafiy mazhabi takomili, shuningdek boshqa fanlar rivojiga ham katta hissa qo'shdi va yuksak ilmiy ahamiyatga molik asarlar yozdi. Dabusiylar nafaqat fiqh sohasida, balki arab tili, tasavvuf va axloq-odob sohalarida ham bilimga ega bo'lgan. Olimning qalamiga mansub "Amadul aqso" asarida keltirilgan ma'lumotlar bu fikrga asos bo'ladi. X-XI asrlarda Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida Abu Zayd Dabusiylarning salmoqli o'rni bor. Abu Zayd Dabusiylar yashagan davr Abbosiylar hukmronligi davrining (132-656/750-1258) o'rtasiga to'g'ri keladi. Abu Zayd Dabusiylarning to'rtta asari bugungacha yetib kelgan bo'lib, ular quyidagilardir:

1. "Taqvimul adilla fi usulil fiqh".
2. "Ta'sisun nazar".
3. "Amadul aqso".
4. "Asror fil usul val furu".

Muallifning "Taqvimul adilla fi usulil fiqh" asari hanafiy usulul fiqh bo'yicha yozilgan ilk manbalardan biridir. Shu bilan birga, u o'sha davrda Movarounnahrda bu sohada yozilgan va bizgacha yetib kelgan ilk manbadir. Asar usulul fiqh ilmiga oid bo'lishi bilan bir qatorda, unda ba'zi aqida masalalari ham bayon etilgan.

Abu Zayd Dabusiylarning mazkur asarni yozishdan maqsadi – hanafiy usulul fiqh sohasida o'zigacha davom etib kelayotgan ayrim xatoliklarni to'g'rilash bo'lgan. Olim o'z sohasi bo'yicha maqsadiga qay darajada erishganidan qat'iy nazar, asarda uning o'zi yozgan asarlari "Amadul aqso", "Asror" va "Xizonatul huda"da bildirgan qarashlari kamoliga yetkazilgan.

Dabusiylar usulul fiqh sohasida Iroq va Movarounnahr hanafiy faqihlari qo'llagan uslublar va ularning dalillaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Chuqur bilimi sababli olim ikki hudud faqihlarining qarashlarini bir-biridan ajrata olgan. Bunga qo'shimcha ravishda, asarda as'hobut tard, hashaviyya, zohiriy mazhabi va bugungacha yetib kelmagan boshqa oqimlarning qarashlari ham keltirilgani sababli asar Movarounnahrda usulul fiqh va furu'ul fiqh bilan bir qatorda sunniylik yo'nalishi tarixini o'rganishda ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Abul Hasan Ali Pazdaviy ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abdulkarim ibn Muso ibn Iso ibn Mujohid ibn Abdulloh Pazdadan yetishib chiqqan yirik olimlardan biri bo'lib, taxminan 400/1009-yilda Pazdada tug'ilgan. Faxrul islom Pazdaviy 80 yoshdan o'tib, 482/1089-yili Keshda vafot etgan.

Faxrul islom Pazdaviylarning "Usul" asari hanafiy usulidagi uchinchi manba bo'lib, undan avval yozilgan Abu Bakr Jassos (vaf. 370/981)ning "Al-Fusul fil usul" asari

mazhab usuliga oid qarashlarni to'plashga, Abu Zayd Dabusi (978–1038) “Taqvimul adilla” asari esa hanafiy usulining o'ziga xos jihatlarini tahlil etishga, asoslab berishga qaratilgan edi. Pazdaviyning ta'lifidan maqsadi asar muqaddimasida o'zi bayon etganidek: “Ushbu kitob shar'iy hujjatlarni, ularning ma'nolari bilan, usuliy qoidalarni amaliy masalalar ila ixcham va muxtasar tarzda bayon qilish” edi [9:30].

“Usul” asari muxtasar bo'lishiga qarmay keng qamrovli bo'lganidan muallif davridayoq ilmiy doiralar e'tiborini qozonganini ko'rish mumkin. Manbaning zamonaviy nashrini tayyorlagan Doktor Said Bektosh Pazdaviy va uning zamondoshi shamsul aimma Saraxsiy (vaf. 1090)ning usulga oid asarlarini qiyosiy tahlil qilib, ular orasida ma'lumotlarni berish va mavzularni taqsimotidagi ko'pgina o'xshash o'rinlarni misollar orqali ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, Saraxsiy o'z asarini vafotidan biroz oldin – 479-yil shavvol (1087-yil, fevral) oyida yozishga kirishgani haqidagi tarixiy dalilga tayanib, shamsul aimma Saraxsiy “Usul” asarini Pazdaviyning shu nomdagi kitobidan foydalangan, degan xulosani beradi[6:4].

Abul Barakot Nasafiy (1232-1310) “Manorul anvor” (“Nurlar manbai”) risolasi ana shu maqsadda yozilgan bo'lib, bu haqda muallif shunday degan: “Buxoro va ko'plab musulmon shaharlaridagi talabalarni Faxrul islom Pazdaviy va shamsul aimma Saraxsiylarning usul kitoblariga katta qiziqishi borligini kuzatdim. Zarurat tug'ilmasa ushbu ikki manbadan boshqasiga qo'shmadim”[4:4].

Nasafiyning mazkur risolasi 25 varaqdan iborat bo'lib, talabalarga fanning asosiy mavzularini yodlab olishlari uchun tayyorlangan. “Manorul anvor” ikki asar mazmuni jamlangani sabab unga yigirmadan ortiq sharhlar yozilgan. “Usulul Pazdaviy” ilmiy doiralarda katta qiziqish bilan o'rganilgani natijasida undagi ma'lumotlarni izohlash, sharhlash nafaqat hanafiy faqihlar o'rtasida keng ommalashgan, balki Shofe'iy ulamolar tomonidan ham asarga sharh yozilganini ko'rish mumkin.

Jumladan, XIV asr Faxriddin Abul Makorim Ahmad ibn Hasan ibn Yusuf Jorbardiy Tabriziy (vaf. 746/1346) “Sharhu Usulul Pazdaviy” (“Usulul Pazdaviy sharhi”) nomli sharh yozgan. Jorbardiy mashhur shofe'iy faqihi hisoblanadi.

Zabardast olimlar asardagi daqiq ma'nolarni bayon qilish, jumboqli iboralarni yechishda go'yoki musobaqa qildilar [10:182]. XIV-XV asrlarda asarga Movarounnahrda to'rtta sharh: Hamididdin Ali ibn Muhammad Romishiy Buxoriy (vaf. 667/1268)ning “Favaidu Pazdaviy” (“Pazdaviydan olingan foydalar”), Husomiddin Husayn ibn Ali ibn Hajjoj Sig'noqiy (vaf. 714/1314)ning “Kofiy” (“Kifoya qiluvchi asar”), Abdulaziz ibn Ahmad ibn Muhammad Alouddin Buxoriy (vaf.730/1330)ning “Kashful asror an usuli faxril islom Pazdaviy” (“Faxrul islom Pazdaviyning “Usul” asari sirlarini ochish”), Jaloliddin ibn Shamsiddin Xorazmiy Go'rloniy (vaf.767/1365)ning “Shofiy” (“Tuzatuvchi asar”) yozilgan [13:7]. Asarga yozilgan sharhlar mazkurlar bilan cheklanib qolmaydi. Sababi manbaning qo'lyozma nusxalari juda ko'p va dunyo bo'ylab keng tarqalgan. Birgina Iordaniya qirolligidagi

“Oli Bayt islom bilimlari va madaniyati” nomli tadqiqot muassasasi tomonidan tayyorlangan qo‘lyozmalar katalogida “Usul” asarining 108 ta qo‘lyozmasi haqida ma’lumot berilgan. Ulardan muallifga eng yaqin davrda yozilgani Pazdaviy vafotidan 62 yil o‘tib, 546/1151-yili Muhammad ibn Is’hoq Roziy tomonidan ko‘chirilgan nusxasi bo‘lib, kolofonida ustozidan ushbu kitobni o‘qib o‘rgangani xususida berilgan ijoza (shahodatnoma) mavjud. Asarning ayni kunda O‘zR FA ShIning qo‘lyozmalar fondida 3 ta va O‘zbekiston musulmonlar idorasi kutubxonasida 1 ta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ular qadimiyligi, yozuvlarining aniq va chiroyliligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Manbaning zamonaviy nashri Madina universiteti ustози doktor Said Bektosh tomonidan 2016-yil shaharning “Dorus siroj” matbaasida chop etilgan. XIII-XIV asrlarda “Usulul Pazdaviy”ga yozilgan keng qamrovli sharhlar islom tafakkuridagi nazariy sohalar rivojlanishi va falsafa-mantiq mezonlarini umumiy-ilmiy til sifatida yuzaga chiqishidagi asosiy omillardan biri bo‘ldi. Mazkur jarayonlarda shofe’iylik va hanafiylik nazariy qoidalarini qiyosiy tahlil qilish va har ikkala tomonning ham afzal jihatlarni birlashtirish orqali usulul fiqhda yangi uchinchi yondashuv – muhaqqiqlar yo‘nalishiga asos solindi. Yo‘nalish asoschisi Muzaffariddin Ibn Soatiy (vaf.694/1295) ustози Abul Barakot Nasafiy “Manor” asarida Pazdaviy va Saraxsiy asarlari mazmunidan jamlagan tajribasini rivojlantirib, turli xil usul maktablari manbalarini, ya’ni, faxrul islom Pazdaviy Hanafiyning “Usul”, Sayfiddin Omidiy Shofe’iyning (1156–1233) “Ihkam fi usul” asarlari mazmunini o‘zining “Badi’ an nizom bayna “Usulul Pazdaviy” val “Ihkom” (“Usulul Pazdaviy” va “Ihkom” asarlari o‘rtasini go‘zal tizimlashtirish”) asarida jamlashga va ularni yangi ilmiy yondashuv asoslarida tahlil etishga erishdi [12:17].

Faxrul islom Pazdaviyning “Usul” asari hanafiylik usulidagi uchinchi manba bo‘lib, unda hanafiylik mazhabining shar’iy-huquqiy qonunlar ishlab chiqishdagi metodlari to‘liq tartibga solinib, dalillar va amaliy misollar mo‘jaz tarzda izohlab berildi. Asar uslub va mazmunan boy va asosli bo‘lganidan, hanafiylik usu-lul fiqhi xulosasi va eng ustuvor qarashlari majmuasi sifatida qabul qilinib, uning asosida mazhab usulini o‘rganish faqihlar uchun qulaylashdi. Natijada, “Usulul Pazdaviy” asari orqali hanafiy usuli mavzularini akademik tarzda o‘rganish jadallashdi va mazhab usuliga oid keng qamrovli adabiyotlar bilan boyidi.

XULOSA

Shariatning rivojlanishi Qur’on va Sunna asosida shakllangan bo‘lsa ham, tarixiy omillar uning taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar shariat qoidalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Usulul fiqh ilmi shu jarayonda rivojlanib, ikki asosiy yo‘nalishga bo‘lindi: mutakallimlar va hanafiy ulamolari yo‘nalishi. Imom Shofe’iyning Risola asari usulul fiqhning birinchi manbasi sifatida tanilgan. Hanafiy usulul fiqhida esa Abu Bakr Jassosning Al-Fusul fil usul, Abu Zayd

Dabusiyning Taqviymul adilla va Faxrul Islom Pazdaviyning Kitobul usul asarlari muhim o'rin tutadi. Ushbu asarlar hanafiy yondashuvining shakllanishiga xizmat qilgan. Bu ilmiy an'ana keyinchalik ham davom etib, hanafiy fiqhiy merosining asosiy qismi bo'lib qoldi. Mazkur tadqiqotda aynan hanafiy usulul fiqhining rivojlanish jarayoni va muhim manbalari tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Bakr Jassos. Ahkom al-Qur'on. J.1-3. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya. – 423 b.
2. Abdulhakim Juzjoni. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2002. - 256 b.
3. Abul-Yusr Muhammad al-Bazdaviy. Kitob fi usul ad-din / H.-P. Linss tahriri ostida. – Qohira: Dor ihyo' al-kutub al-'arabiyya, 1963. – B. 198.
4. Abul Barakot Nasafiy. Kashful asror fi sharhil manor. – Bayrut: Darul kutubil ilmiya, 2009. J-1. – 422 b.
5. Abdulhay Laknaviy. An-Nofe' al-kabir li-man yutoli' al-Jome' as-sag'ir. – Karachi: Idara al-Qur'on va al-ulum al-islamiya, 1990. – B. 325.
6. Abdulaziz Buxoriy. Kashful asror. – Bayrut: Darul kutub al-ilmiyya, 1997. J-1, – 234 b.
7. Abu Zayd Dabusi. Amadul aqso fi xizonatil huda. Istanbul: Beyazit kutubxonasi. Veluyuddin efendi bo'limi. Qo'lyozma № 1633, 1682. 356 b.
8. Adirnaviy. Maham al-fuqaho. – Misr: Dor al-kutub al-misriya. – B. 270.
9. Faxrul islom Pazdaviy. Usulul Pazdaviy // nashrga tayyorlovchi: Said Bektosh. – Madina: Dor as-siroj, 2016. – 562 b
10. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asami al-kutub va-l-funun. – Bayrut. Dor kutub alilmiya, 1992. –J-1. – 482 b.
11. Ismoil Poshsho Bag'dodiy. Hadiya al-orifin – Asma al-muallifin va osor al-musannifin. J.1. – Bayrut: Dar ihyo at-turos al-arabiy, 1951. – B.267.
12. Ibn So'atij. Badi'un nizom. – Makka: Ummul Quro universiteti nashriyoti, 2006. – 217 b.
13. Jaloliddin Go'rloniy. Kashful asror. – Bayrut. Dorul kutubul ilmiyya, 2019. J-1. – 427 b.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – 543 b